



Qimmatli qog'ozlar
Markaziy depozitariysi

QIMMATLI QOG'OZLAR MARKAZIY DEPOZITARIYSINING 2025 YILNING 1 CHORAGI DAVOMIDAGI FAOLIYATI NATIJALARI TO'G'RISIDA HISOBOT

01.04.2025

2025 yilning 01 aprelidagi holatga ko'ra, Markaziy depozitariyda 688 aksiyadorlik jamiyatining 218 374,12 mlrd.so'm umumiy nominal qiymatga ega 23 787,12 mlrd.dona aksiya chiqarilishlari hisobi yuritilmoqda. 2025 yilning 1 choragi davomida aksiya chiqarilishlari hajmi 3 674,03 mlrd.so'mga, aksiyalarning soni esa 3,6 mlrd. donaga ko'paydi.

Markaziy depozitariyda shuningdek, 44 emitent tomonidan chiqarilgan 2 471,2 mlrd.so'm umumiy miqdorga ega 171,04 mln.dona korporativ obligatsiyalar hisobi yuritiladi. Korporativ obligatsiyalarning 1 299,0 mlrd.so'm umumiy miqdorga ega 2,1 mln.donasi 37 MChJ tomonidan chiqarilgan.

I. Davlat aktivlarini saqlash va hisobini yuritish

01.04.2025 yildagi holatga ko'ra, 260 ta aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi 172 817,9 mlrd.so'mni tashkil etdi (shu jumladan, Markaziy depozitariyda 234 aksiyadorlik jamiyatining 172 751,3 mlrd.so'm miqdordagi davlat ulushi hisobi yuritilmoqda). 2025 yilning 1 choragi davomida ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 1 taga kamaydi, mavjud davlat ulushi hajmi esa 1 213,1 mlrd.so'mga ortdi.

Xo'jalik boshqaruvi organlarining 100 AJ ustav fondidagi ulushlari hajmi nominal qiymati bo'yicha 4 756,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2025 yilning 1 choragi davomida xo'jalik boshqaruvi organlari aktivlarining hajmi 5,1 mlrd.so'mga kamaydi, AJlar soni esa o'zgarmadi.

II. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy O'zbekiston Respublikasi depozitar tizimida qimmatli qog'ozlarning yagona hisobi yuritilishini ta'minlaydi. 2025 yilning 1 choragi davomida Markaziy depozitariyga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha 42 ta hujjatlar to'plami kelib tushdi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyda jami 29 ta, shu jumladan 3 – birlamchi, 19 - qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari, 2 ta kapitallashtirish bo'yicha qo'shimcha aksiya chiqarilishlari, 4 ta korporativ obligatsiya chiqarilishlari va obligatsiyaning kominal qiymati o'zgarganligi munosabati bilan 1 ta chiqarilish hisobga olindi. 1 ta emitentning ilgari ro'yxatdan o'tkazilgan aksiya chiqarilishlariga o'zgartirishlar kiritildi.

Tugatilganligi munosabati bilan 3 emitentning qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari, 7 emitent qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining qismi, 1 emitentning bir yoki bir necha chiqarilishlari, shuningdek 1 emitentning obligatsiya chiqarilishlari so'ndirish munosabati bilan Markaziy depozitariy hisobidan chiqarildi.

2025 yilning 1 choragi davomida Markaziy depozitariy tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarini o'tkazish, shuningdek boshqa korporativ harakatlarni amalga oshirish uchun 424 ta reyestr shakllantirildi.

727 mahalliy emitentning 1046 turdagi qimmatli qog'ozlariga xalqaro kodlar berildi.

III. Markaziy depozitariy orqali pul mablag'lari bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2023-2025 yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 3.1-bandiga asosan "Toshkent" RFBning qimmatli qog'ozlar bilan savdolardagi hisob-kitoblarni (kliring) amalga oshirish va hisob-kitob kliring palatasi funksiyalari Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga o'tkazildi.

Shu munosabat bilan "Toshkent" RFB AJning qimmatli qog'ozlar bilan savdolardagi hisob-kitoblarni (kliring) amalga oshirish va hisob-kitob kliring palatasi funksiyasi Markaziy depozitariy tomonidan amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va barcha investitsiya vositachilari (40 ta) o'rtasida hisob-kitob (kliring) amaliyotlariga doir shartnomalar imzolandi. Joriy yilning 01 aprelidagi holatga ko'ra, Markaziy depozitariyning pul mablag'laridagi hisob-kitoblarni amalga oshirish borasidagi mijozlari soni 202 425 tani, shu jumladan 54 ta yuridik va 202 371 ta jismoniy shaxslarni tashkil etdi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyning hisob-kliring palatasi funksiyasini bajarishga doir faoliyatiga muvofiq 236,5 mlrd.so'm umumiy miqdordagi 360 ta tranzaksiya amalga oshirildi. Markaziy depozitariyning emitentlar bilan tuziladigan shartnomaga ko'ra daromadlarni (dividendlarni) va qimmatli qog'ozlarning qiymatlarini to'lash uchun mo'ljallangan pul mablag'larini olish, shuningdek tegishli to'lovlarni amalga oshirish funksiyasini bajarish yo'nalishida 2024 yilda aksiyadorlarga dividendlar to'lovini qulay tarzda amalga oshirish bo'yicha Markaziy depozitariyning UzCSD mobil ilovasi joriy etildi. Shu munosabat bilan "ABT" avtomatlashtirilgan axborot tizimining UzCSD mobil ilovasi va YaDTK bilan integratsiyalashuvi amalga oshirildi. Dividendlar to'lovi uchun reyestr bo'yicha "ABT" AATga ma'lumotlarni uzatish uchun "EBD" AAT moduli takomillashtirildi.

Joriy yilning 01 aprel holatiga Markaziy depozitariy tomonidan 14 emitent bilan aksiyadorlarga daromadlar (dividendlar) va qimmatli qog'ozlarning qiymatlari to'lovi bo'yicha jami 16,6 mlrd. so'mlik shartnomalar tuzildi va shundan 10,1 mlrd.so'm miqdoridagi dividendlar Markaziy depozitariyning UzCSD mobil ilovasi orqali aksiyadorlarga to'lab berildi.

IV. Davlat qimmatli qog'ozlariga xizmat ko'rsatish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-sonli Qarorining 2-bandiga asosan 2024 yil 1 iyuldan boshlab, davlat qimmatli qog'ozlarning yagona hisobi "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJda yuritilmoqda.

Bugungi kunda Markaziy depozitariy davlat qimmatli qog'ozlar bozorida 42 dilerga, shu jumladan 36 ta bank va 6 ta investitsiya vositachilariga xizmat ko'rsatmoqda.



Joriy yilning 1 aprelidagi holatga ko'ra, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan 54,9 trln.so'm miqdordagi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan 12,0 trln. so'm miqdordagi davlat qimmatli qog'ozlarining hisobi Markaziy depozitariy tomonidan yuritilmoqda.

V. Investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar hisobini yuritish bo'yicha mutlaq funksiyalarini bajargan holda, 2 ta XIF va 7 ta investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatadi.

Hisobot sanasiga investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi 2,32 mlrd.so'mni, investitsiya fondlari tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar hajmi esa 9,6 mlrd.so'mni tashkil etdi. Investitsiya fondlari aksiyadorlari soni 51 183 tani, shu jumladan 51 143 ta jismoniy va 40 ta yuridik shaxslarni tashkil qildi.

VI. Investitsiya vositachilari bilan hamkorlik yuritish

Markaziy depozitariy, shuningdek 57 investitsiya vositachilari, 1 chet ellik nominal saqllovchi va ularning mijozlarining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi.

01.04.2025 yil holatiga ko'ra, investitsiya vositachilarining depo hisobvaraqlarini ochgan mijozlari soni 712,63 mingni, shu jumladan 57,89 ming yuridik va 654,73 ming jismoniy shaxslarni tashkil etdi. O'tgan yilning ayni shu davriga qiyoslaganda, depo hisobvaraqlari soni 1,1 foizga ortgan.

Investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlarning umumiy hajmi nominal qiymati bo'yicha: 30 677,17 mlrd. so'm miqdordagi 11 480,60 mlrd. dona aksiyani va 2 223,68 mlrd. so'm miqdordagi 170,83 mln. dona korporativ obligatsiyani tashkil etdi. O'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlar hajmi 67,28 foizga ortdi.

Markaziy depozitariy tomonidan hisobot davrida 423,75 mlrd.so'm miqdordagi 0,13 mlrd. dona qimmatli qog'ozlar bo'yicha 21 ta birjadan tashqari bitimlar ro'yxatga olindi.

VII. Deponentlarning yagona bazasi

Markaziy depozitariy tomonidan yuritiladigan deponentlarning yagona bazasi 01.04.2025 yil holatiga 839 642 ni, shu jumladan 776 316 jismoniy shaxsni va 63 326 yuridik shaxsni tashkil etdi. Deponentlarning yagona bazasida ro'yxatga olingan shaxslar soni o'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan 23 555 taga ortdi.

VIII. Axborot-maslahat xizmatlari

Markaziy depozitariy tomonidan aksiyadorlik jamiyatlariga ular tomonidan korporativ xatti-harakatlarni amalga oshirishda hamda qimmatli qog'ozlar emissiyasini tayyorlashda axborot-maslahat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

2020 yilda Markaziy depozitariy tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarini Internet tarmog'i orqali onlayn tarzda masofadan turib o'tkazishga mo'ljallangan yangi "Elektron ovoz berish - e-VOTE" xizmati joriy etildi.

2025 yilning 1 choragi davomida esa 9 AJ aksiyadorlarining 11 ta yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari "Elektron ovoz berish - e-VOTE" xizmatidan foydalangan holda, masofaviy tarzda o'tkazildi.

Shuningdek, 2 aksiyadorlik jamiyatlariga korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha xizmatlar ko'rsatildi.

IX. Strategik rivojlantirish

Markaziy depozitariy tomonidan "Kapital bozorini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-291-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Xususan, Markaziy depozitariy xodimlari "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Kapital bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etdilar.

Shuningdek, hisobot davrida Markaziy depozitariy faoliyatining va uning yangi funksiyalari bilan bog'liq operatsiyalarning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida quyidagi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi:

- "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyatida arxiv ishi bo'yicha ekspert komissiyasi va ish yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom;
- "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyatida ish yuritish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma;
- "Cheklangan miqdorda tarqatishga mo'ljallangan maxfiy bo'lmagan axborotga ega hujjatlar, to'plamlar va nashrlarni hisobga olish, saqlash va muomalasini yuritish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma.

X. Tavakkalchiliklarni boshqarish va komplayens-nazorat

Hisobot davrida "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyati xodimlaridan Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risida yillik arizalar (deklaratsiyalar) qabul qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra Markaziy depozitariy xodimlari orasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Markaziy depozitariyda amalga oshirilayotgan davlat xaridlari bo'yicha 5 kontragentga tegishli hujjatlar tekshirib chiqildi va ijobiy xulosalar taqdim etildi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyning 3 nafar xodimi "Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha virtual akademiya" elektron platformasida masofaviy tarzda o'tkazilgan o'quv kursida tahsil oldilar. Ushbu yo'nalishdagi ta'lim davlat ishtirokiga ega korxonalar xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'quv dasturlari asosida tashkil etildi.

Ayni paytda Markaziy depozitariyda turli korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida anonim quti, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari uchun "ishonch telefoni" (+99871 209 02 63), elektron pochta(anticore@uzcsd.uz), telegram-messendjer (@uzcsd_anticore) hamda Markaziy depozitariyning rasmiy veb-saytida onlayn-sahifa (<https://uzcsd.uz/onlineAppeal>) xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

XI. Texnologik va dasturiy majmua

Hisobot davrida YEBD, ISIN, Shaxsiy kabinet, Markaziy depozitariyning rasmiy veb-sayti, Avtomatlashtirilgan bank tizimi, Bitriks, Dispatcher va UzCsd mobil ilovasi axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini ma'muriy boshqarish amalga oshirildi. Shuningdek, mijozlar bilan tuziladigan shartnomalarni imzolash jarayonlari avtomatlashtirildi.

Sud boshqaruvchilari va debitorlarga xizmat ko'rsatadigan modullar ishlab chiqildi. Kirim-chiqim hujjatlarini hisobga olish bo'yicha yangi dastur ishlab chiqildi.

UzCsd mobil ilovasida brokerlar uchun hisobvaraqlar ochishni ko'zda tutadigan yangi funktsiya amalga joriy etildi. Shuningdek, mijozlarning ma'lumotlarini yangilash uchun API ishlab chiqildi.

XII. Faoliyatni texnik va axborot qo'llab-quvvatlash

Hisobot davrida Markaziy depozitariy bazasi ma'lumotlarining zaxira nusxalarini yaratish maqsadida SUBD INFORMIKSni hamda pochta tizimini ma'muriy boshqarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Axborotni tezkor qayta ishlash bo'yicha sozlash ishlari amalga oshirildi.

Hisobot davrida foydalanuvchilarning ishchi stansiyalarining axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha audit o'tkazildi. Axborot xavfsizligi bo'yicha o'quv seminari tashkil etildi. Shuningdek, axborot xavfsizligi siyosatining yangi tahriri ishlab chiqildi.

Markaziy depozitariy serverlarining uzluksiz ish jarayonini ta'minlash maqsadida foydalanuvchilar va ishchi stansiyalarni qo'llab-quvvatlash ishlari muntazam ravishda olib borilmoqda.

XIII. Kadrlar siyosati

Markaziy depozitariyning kadrlar siyosati yuqori malakali mutaxassisnlarni maksimal darajada qo'llab-quvvatlash, iqtidorli va istiqbolli kadrlar bilan ishlash, mehnatni rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan Markaziy depozitariyda xodimlarning malakasini oshirishga, zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tillarni o'qitishga qaratilgan tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Dastavval qimmatli qog'ozlar bozori, korporativ boshqaruv, axborot texnologiyalari va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq hisobotlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda xodimlarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda Markaziy depozitariy xodimlarining 6 nafarida qimmatli qog'ozlar bozorining 1 toifa mutaxassisi malaka guvohnomasi, 12 nafarida esa qimmatli qog'ozlar bozorining 2 toifa mutaxassisi malaka guvohnomasi mavjud. 8 nafar xodim SWIFT Smart platformasida SWIFT tizimi bilan ishlash sertifikatiga, 3 ta xodim ORACLE ma'lumotlar bazasini boshqarish bo'yicha sertifikatga, 3 nafar xodim korporativ menejer sertifikatiga, 2 nafar xodim "Moliya va buxgalterlik hisobi", "Sertifikatlangan amaliyotchi buxgalter" (CAP), "Moliyaviy hisob" yo'nalishlari bo'yicha sertifikatlarga ega. Shuningdek, joriy yilning 1 choragi davomida 3 nafar xodim korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining tegishli yo'nalishlari bo'yicha tahsil oldilar. Ayni paytda Markaziy depozitariyning besh nafar xodimi Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limlarida tahsil olishmoqda.

XIV. Xalqaro hamkorlik

Markaziy depozitariyning xalqaro va xorijiy markaziy depozitariylar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatishni ta'minlash maqsadida hisobot davrida:

- "Bank of Georgia" kastodian bankiga Markaziy depozitariyda chet ellik nominal saqllovchi depo hisobvarag'i ochilishi munosabati bilan hamkorlik jarayonlarni huquqiy mustahkamlash va tomonlar o'rtasida axborot almashuvni yo'lga qo'yish maqsadida qo'shimcha kelishuv ishlab chiqildi va uni imzolash bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda. RMA almashish amalga oshirildi va SWIFT kanallari orqali xabarlar almashish bo'yicha sinov tadbirlari o'tkazildi
- Markaziy depozitariyda OTP Bank uchun chet ellik nominal saqllovchi hisobvarag'ini ochish va komplayensni amalga oshirish bo'yicha ish olib borilmoqda

Hisobot davrida Markaziy depozitariy vakillari Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining moliya sektorini baholash bo'yicha ikkilamchi missiyasi (FSAP) vakillari bilan uchrashuvda qatnashdilar. Uchrashuvda missiya ishtirokchilariga kapital bozori sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bozorning joriy holati va istiqbol rejalari xususida ma'lumotlar taqdim etildi.



uzcsd.uz



info@uzcsd.uz



+998 71 211 09 09